

Bugungi O'quvchilarimizning Sog'lom Tarbiyasida Xalq Og'zaki Ijodi Asosiy Manbaa Sifatida

Abdullayeva Barno Sayfutdinovna

P.F.D. professor

Nizomiy nomidagi TDPU

Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi

PhD. dotsent Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri

Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna

Nizomiy nomidagi TDPU

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich magistranti

ABSTRACT

This article talks about the fact that folklore is the main source of healthy education for students and the meaning of ways to educate our youth through folklore

В данной статье говорится о том, что фольклор является основным источником здорового воспитания учащихся и о значении способов воспитания нашей молодежи посредством фольклора.

Ushbu maqolada o'quvchilarning sog'lom tarbiya topishida xalq og'zaki ijodi asosiy manbaa sifatida ekanligi hamda xalq og'zaki ijodi orqali yoshlarimizni tarbiyalash yo'llarining mazmuni haqida so'z borgan.

ARTICLE INFO

Received: 11th January 2024

Accepted: 7th March 2024

KEY WORDS:

Education, Health Education, Oral Creativity, Folk Oral Creativity, Fairy Tale, Alla, Yalla, Lapar, Epic.

воспитание, здоровое воспитание, устное творчество, народное устное творчество, сказка, алла, ялла, лапар, эпос

tarbiya, sog'lom tarbiya, og'zaki ijod, xalq og'zaki ijodi, ertak, alla, yalla, lapar, doston.

Xalq og'zaki ijodi xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyatidir. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an'anaviylashib borgan va nihoyat kasbiylik xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro shaklida va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Inson nutqi shakllanishi bilan xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi.

Farzandlarimizning tarbiyaviy taqdiri juda muhim masala bo'lganligi uchun ham davlatimiz tomonidan chiqayotgan qonun va qarorlardan ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan: "Ta'lim tog'risida"gi qonunning 4-

moddasida ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi¹; haqida alohida fikr bildirilgan. Shu asnosida har bir o'qituvchi o'z darslarida milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda darslar o'tilmog'i lozim.

Bolalar kichik yoshdan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalari, ayniqsa, "Yoriltosh", "Ur to'qmoq", "Dehqon bobo", "Qizil gul" "Zumrad va Qimmat" va boshqa ertaklarni sevib tinglaydilar va mutolaa qiladilar. 3-5 yoshli bolalar ertak, sanama kabilarni qiziqib tinglaydilar, 5-6(7) yoshli bolalar esa tez aytishlarini alohida e'tibor bilan o'rganadilar. Shu jihatdan olganda, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida oilada bolalarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda, ayniqsa, buvi va bobolarning o'rni muhimdir. Oila tarbiyasida kitobxonlik, ma'naviy suhbat, xalq og'zaki ijodiga oid ertak, qo'shiq, afsona kabilardan foydalanish ota-onalar, bobo-buvilar tomonidan farzandlarni axloqiy-estetik tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun kattalar, ota-ona, buvi yoki buva tomonidan aytib berilgan ertaklar ularning hissiyoti, dunyoqarashi, borliqni badiiy-estetik idrok etishiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy manbadir.



Oilada bir yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ona "Alla" sining tarbiyaviy ahamiyati muhimdir. X asr Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur mutafakkiri va xalq tabobatining buyuk namoyondasi Abu Ali ibn Sino ona "alla" sining tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr bildirib, bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak, chunonchi: biri - bolani asta-sekin tebratish; ikkinchisi - uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa – ona allasi zarurdir, deydi. Ona allasida volidaning o'z farzandiga beqiyos muhabbati ifodalanadi. Uning so'zlari ham o'ta samimiy, sokin va betakrordir. Unda onaning ruhiy kechinmalari, farzandi kelajagidan umidvorligi, bolasiga baxt va iqlol tilashi aks etad.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri ertaklar bolaning ilk yoshidanoq uni quvonchli tuyg'ularga oshno qiladi. Bola ertak qahramonlari bilan birga olis-olislariga "sayohat qiladi". U yerdagi hayot bilan tanishadi. Ertak uning aqlini charxlaydi, tafakkurini boyitadi, faraz qilish qobiliyatini o'stiradi. Ertakning ravon, obrazli til uslubi bola nutqini rivojlantiradi. Yorqin, hayotiy obrazlar uning hissiyotlariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. U aqlli, oqko'ngil, ijobiy qahramonlar bilan tanishadi, ular falokatga yo'liqqanida qayg'uradi, g'alaba qilishganida, yovuz va xasis kishilarni jazolaganlarida xursand bo'lishadi. Ertakning ishonchli axloqiy g'oyalari bolani fikrlashga, o'z xatti-harakatini sevimli ertak qahramonlarining xatti-harakatlari bilan

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, "Ta'lim to'g'risida". 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.

qiyoslashga undaydi, qahramonlar timsolida bolalar qo'rqmas va rostgo'y bo'lishga o'rganadilar. O'z oldilariga aniq maqsadlar qo'yish, unga erishish uchun harakat qilish, turli to'siqlarni yengib o'tish, do'stlariga yordam berish, o'rtoqlariga sadoqatli bo'lish kabi sifatlarni bosqichma-bosqich egallab borishadi.



Bola 2-3 yoshidanoq ertaklarni qiziqish bilan tinglaydi. Ertak bolaning yoshiga mos bo'lishi zarur. Ertakni sekin-asta, shoshmasdan, ifodali o'qish, obrazlar qiyofasini bola ko'z oldida gavdalantirish zarur. Farzand bilan birgalikda ota-onalar ham ertakka mos chizilgan syujetli rasmlarni tamosha qilishlari, ularni sharhlab berishlari lozim. Bolaga unchalik murakkab bo'lmagan savollar berish, uni ertak yoki rasmni qayta so'zlab berishga undash amaliy pedagogik jihatdan juda foydalidir. Bu bolaning xotirasi va diqqatini rivojlantirib, o'qilgan narsaga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Bolaning hayotiy tajribasi bu davrda hali juda oz bo'ladi. Ertak va real olam uning nazarida mutlaqo farq qiladi. Bola "chindan ham jodugar kampir, dev, uchar gilam bo'lganmi?" kabi savollarni beradi. Bunday paytda ota-ona hushyorlik bilan ertaklar bilan moddiy borliq orasida aloqadorlikni hamda farqlarni tushuntirib borishi lozim. Aks holda uning faraz qilish qobiliyatiga putur yetadi. Ertaklarga ishonchsizlik bilan qaray boshlaydi. Natijada ularga bo'lgan qiziqishi so'nib boradi. Masalan, uchar gilamlar o'rniga fan-texnika, davr taraqqiyoti natijasida samolyotlar, oynai jahon o'rniga televizor ixtiro qilinganligini ehtiyotkorlik bilan tushuntirish lozim. Bola ulg'aygan sari ertak va real olam o'rtasidagi aloqadorlikni yaxshi anglab boradi hamda ulardagi axloqiy-estetik qarashlarni chuqurroq o'zlashtirib oladi.

Xalq pedagogikasidan ma'lumki, insonning mukammal, komil bo'lib kamol topishi juda ko'p ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ostida vujudga keladi. Xalq og'zaki ijodi tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida shakllanib kelgan. Bu ijod namunalari mazmunan rang-barangligi xalqning turmush tarzi mehnati xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog'langan. Xalq og'zaki ijodi janrlari turlichadir: ularga afsona, rivoyat, ertak, latifalar, tarixiy qo'shiqlar, xalq qo'shiqlari, qo'g'irchoq o'yinlari, askiyalar kiradi. Xalq og'zaki ijodining kichik janrlari maqol, tez aytish, topishmoqlar bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarurdir. Tez aytishlar og'zaki nutq mashqi bo'lib kichik yoshdagi bolalarda tovushlarni to'g'ri ohangda so'zlashga o'rgatish bilan birga bolalarga estetik zavq bag'ishlaydi. Topishmoqlar esa bolani o'ylashga va topqirlikga o'rgatadi. Maqollar xalqning aqlu farosati hamda turmush tajribasining yakuni ular donishmandlik mahsuli. Bolalarda barcha tarbiya turlariga oid ko'nikmalarni tarbiyalashda maqollardan unumli foydalanilsa, tarbiyaviy ta'sir kuchini yanada ortiradi.

Quyidagi xalq og'zaki ijodi namumalari va turlari mavjud:

ERTAK – hayot haqiqatiga asoslangan, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo'g'rilgan, odamlarga ibrat o'git beruvchi og'zaki hikoyalar hisoblanadi. O'zbeklar o'rtasida ertaklar varsoq, cho'pchak, masala kabi

atamalar bilan yuritiladi. Ertaklarning o'ziga xos janr xususiyatlari quyidagilar: 1. Og'zaki hikoyaga asoslangan qiziqarli syujetga ega bo'lishi; 2. voqealarning ongli tarzda xayoliy uydirmalar orqali aks ettirilishi; 3. estetik vazifaning yetakchilik qilishi; 4. o'ziga xos badiiy shakily qolip hamda tilga ega bo'lishi (ertaklar bir bor ekan, bir yo'q ekan... kabi maxsus boshlamalar bilan boshlanib, murod maqsadiga yetibdi, birga turib, birga yashabdilar, soqoli ko'ksiga yetibdi kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanadi.)

Ertaklar – xalq og'zaki ijodining qadimiy janri.



Xalq ertaklari mazmunan 3 guruhga bo'linadi:

1. Hayvonlar haqidagi hamda majoziy ertaklar (Susambil, bu ertakda yo'lda eshakka ho'kiz, xo'roz, ikkita kalamush, arilar hamroh bo'ladilar. Ertak qahramonlari – Ho'kiz (munkarnakir), kalamushlar (go'rkovlar), arilar (Azroil), xo'roz (so'fi), eshak (eshon), bo'rilar)
 2. Sehrli – fantastic ertaklar (Guliqahqah – bu ertakda Tilla kokilli bola shum kampirning hiylasi bilan Guliqahqahni, qirq qozonni, oynayi jahonnamoni qo'lga kiritadi. Ertak qahramonlari: Tilla kokilli bola, Guliqahqah, chol, qush (o'z farzandini tanimagan podshohga tilla kokilli bola uning farzandi ekanligini aytgan), podsho (ikkita xotinini vas hum kampirni otning dumiga bog'lab o'ldirgan), shum kampir va boshqalar. “Bitta dev tishini kavlasa, biror odamning soni chiqibdi” degan mubolag'a ham shu ertakda uchraydi), Husniyabonu (ertak qahramonlari: Gardanshoh, Nodirai davron, Husniyabonu va boshqalar. Ertakda Husniyabonu o'g'rilarning boshlig'I eshon ekanligini aytganda, podsho darg'azab bo'lib, uni osishga buyuradi, lekin vazirining maslahatiga ko'ra Husniyabonu va uning doyasini dashtu biyobonga tashlab kelishadi, daraxt ostidan topib olgan xazinani Husniyabonu yetim-yesirlarga shahar qurish uchun sarflaydi.), “Guljamol”
 3. Hayotiy-maishiy ertaklar (Malikai Husnobod)
- Voqelikka hajviy yondashish orqali aks ettirish jihatidan o'zbek xalq ertaklari hajviy va hajviy bo'lmagan ertaklar kabi turlarga bo'linadi. Ishqiy-sarguzasht ertaklarda sevgida vafodorlik kuylanadi. Ertaklarni yozib olish va nashr qildirish, asosan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlandi.

LATIFA - xalq og'zaki ijodining eng ommaviy janrlaridan biri bo'lib, nozik, mayin kinoya, qochiriqlar ishtirok etuvchi kulguli, kichik hajmli hikoyalar.

MAQOL – xalqning dono, purhikmat ifodalari, yirik madaniyat arboblari, olimlar, davlat arboblarning ibratomuz gaplari, xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan dono fikrlarni ixcham shaklda ifodalovchi asarlardir. Maqollar she'riy va nasriy tuzilishga ega. Ularda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mardlik, saxiylik, adolat, insof, do'stlik, olijanoblik, chininsoniy g'oyalar, sof muhabbat, ilm olisga da'vat kabilar o'z eksini topgan.

Misollar: Azob ko'rmay – rohat yo'q, Ishl;amay yegan – og'rimay o'lar, Tirishgan tog'dan oshar, Vataning tinch – sen tinch va boshqalar.

MATAL – ko'chma ma'noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turi. Matal o'z ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirilgan so'z birikmalaridan iborat bo'ladi, unda o'xshatish, kinoya, qochirma so'z va boshqa til vositalari qo'llaniladi. Bunda majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ko'chirilgan ma'nosi o'rtasida mantiqiy bog'lanish bo'ladi.

Misollar: Temirni qizig'ida bos, Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin

TOPISHMOQ – narsa yoki hodisalarning ataylab yashiringan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlar. Topishmoqlar o'zbeklar o'rtasida topishmoq, jumboq ushuk, top-top kabi atamalar bilan yuritiladi. Topishmoqlar xalq turmush bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, ularning olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Misollar: Osh ichida tosh tosh ichida osh (o'rik)

AFSONA (legenda) – xayoliy uydirmalar asos bo'lgan kichik nasriy hikoyalar hisoblanadi. Afsona atamasi forsha fusun – sehr, avrash so'zidan olingan. Afsonalar asosida muayyan darajada tarixiy voqea va hodisalar yotadi, uzoq davrlar o'tishi bilan o'zining aniq ildizlarini yo'qotadi, voqelikni yuksak badiiylilikda aks ettirmaydi. Afsona ijrochisi xalq ommasidir. Aristotel afsonalarni haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalar deb atagan. Afsonalar o'z mavzusiga ko'ra tarixiy, toponomik, diniy, maishiy kabi turlarga bo'linadi.

Misollar: Xazorasp, Guldursun, Ayoq qal'a, Shohsanam ko'shki, Obshir ota, To'maris, Shiroq va boshqalar. Qadimgi turk adabiyotida afsona sav deb atalgan.

RIVOYAT – xalqning tarixiy o'tmishi haqidagi badiiy yodnomalar. Biz rivoyatlar va afsonalar tufayli ajdodlarimiz ko'rsatgan buyuk qahramonliklar haqidagi tarixni bilib olamiz. Rivoyatlar afsonalarga qaraganda tarixga yanada yaqin turadi. Ular ham xalq ijodidir. Ertakli ertakchi, dostonlarni baxshilar ijro etganlari holda afsona va rivoyat istalgan kishi tomonidan aytilishi mumkin.

Bolalar ilk yoshdan boshlab oilada, mahallada, bog'chada o'zini qanday tutish, vatanparvarlik tuyg'usini singdirish, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, saramjon – sarishta yurish, odobli, mehnatsevar bo'lish, boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o'rgatiladi. Ana shu odatlar bolani odob – ahloq mehnatga layoqatli qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi. Yuqoridagi ko'rsatgichlarni oilada bolalarda tarkib toptirishning turli uslub, usul, shakl va vositalari mavjud bo'lib, har bir yosh bosqichi turlicha yondashishni talab etadi. Masalan, hikoya qilish, ertak o'qib berish, she'r yod oldirish, tushuntirish, pand-nasixat, o'rnak ko'rsatish kabilardan foydalanish mumkin. Ertakni bolaga aytib berish jarayonida ertak mazmunini buzmasdan, ertak qahramonlarida o'z-o'ziga xizmat mehnat ko'nikmalarni mavjudligiga alohida urg'u berish lozim. Oilada bolalarni o'z-o'ziga xizmat mehnat turi asosida tarbiyalashda ertak, hikoyalardan foydalanish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, quyidagilarga amal qilish zarur:

1) Bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, tarbiyaviy jarayonda xalq og'zaki ijodi bo'lgan hikoyalar va ertaklardan o'z o'rnida foydalanish;

2) Ota-onalar qo'llayotgan hikoya va ertaklari mazmunini soddaroq qilib bola ongiga etkazishi;

3) Ota-onalarning o'zlari o'z-o'ziga xizmat mehnat turida shaxsiy namuna bo'la olishi va shu kabilar.

Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha ma'lumotlarning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi.

Zero, Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi- bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqida fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.Mavlonova, K.Xoliqberdiyev. "Pedagogika".T: "O'qituvchi nashriyoti". 2002 yil.
2. R.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulovalarning "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" O'quv qo'llanma Toshken 2010 yil.
3. M.B.Tursunova "Tarbiya jarayonida oila, mahalla hamda Ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi" SCIENCE AND INNOVATION 2-son 2022.
4. O'zbek xalq og'zaki ijodi: universitetlarning Filologiya va Jumalistika hamda pedagogika institutlarining Til va adabiyot fakultetlari uchun o'quv qo'llanma / O.Madayev; mas'ul muharrir H.Boltaboyev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. - T.: MUMTOZ SO'Z, 2010. - 228 b.
5. Abrorkhonovna, A. K. (2022). FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM THROUGH TOURISM IN THE CURRENT TEXTBOOK" UPBRINGING" OF PRIMARY EDUCATION. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 5, 70-74.
6. Hayitov, A. I., & Azizova, S. (2023). Abdulla Avloniy Asarlari Va Hikoyalari Orqali Boshlang'ich Sinf O'quvchilarida Do'stlik Va Ahillik Sifatlarini Shakllantirish. *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)*, 4-5.
7. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
8. Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. *Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar*, 1(Arxiv№ 2).
9. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.
10. Hayitov, A. I., & Azizova, S. (2023, February). Abdulla avloniy darsliklaridagi axloqiy sifatlar tahlili. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 3, pp. 101-105).
11. Abrorxonova, K., Rahmatova, F., & Dehqonboyev, M. (2022). TECHNOLOGY OF FORMING THE VIRTUE OF TOLERANCE IN PRIMARY CLASS STUDENTS. *Science and Innovation*, 1(7), 362-367.
12. Abrorxonova, K., & Pirnazarova, K. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B8), 2089-2096.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=qdfRKlwAAAAJ&citation_for_view=qdfRKlwAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
2. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=qdfRKlwAAAAJ&citation_for_view=qdfRKlwAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

3. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=qdfRKlwAAAAJ&citation_for_view=qdfRKlwAAAAJ:qjMakFHDy7sC
4. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=qdfRKlwAAAAJ&citation_for_view=qdfRKlwAAAAJ:eQOLeE2rZwMC